



KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRI VA ESTETIK HIS-TUYG‘U TARBIYASI

Ziyayev A.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Tayanch so‘zlar: estetika, his-tuyg‘u, go‘zallik, qobiliyat, estetik extiyoj, yosh davri, shakllantirish, rivojlantirish, metod, shakl, vosita.

Ключевые слова: эстетика, эмоция, красота, способность, эстетическое стремление, возраст, становление, развитие, метод, форма, средства.

Key words: aesthetics, emotion, beauty, ability, aesthetic desire, age, formation, development, method, form, means.

Maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiysi ko‘pincha zamonaviy pedagogikaning yo‘nalishlaridan biri sifatida tushuniladi, u insonda go‘zallikni ko‘rish va tushunish qobiliyatini, uning hayotdagi roli, qiymati va ahamiyatini shakllantirishga qaratilgan. [4]

Estetik tarbiya keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san‘atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya o‘z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq. San‘at va hayot go‘zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go‘zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Kichik maktab yoshi davri aqliy, axloqiy, ma‘naviy, estetik kamol topishi uchun eng mahsuldor davr hisoblanadi va har bir pedagog – murabbiy uni hisobga olishi va o‘z faoliyatida chuqur va keng yondoshishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishda tarbiya jarayoni xususiyatlarni bilishi tashkil etishining shakl va metodlarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash hamda tarbiya tamoyillari asosida hisobga olgan holda amalga oshirish

mahorati o'qituvchining kasbiy bilimi, malakasiga bog'liqdir. Barcha tarbiya turlari qatori estetik tarbiya, xususan kichik maktab yoshi davrida o'quvchilar estetik his-tuyg'ularni shakllantirish jarayoni ham muayan maqsadni izchil va tizimli, pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan holda shaxsni kamol toptirishga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon uchun taalluqli jixatlar va xususiyatlar keng va serqirradir.

Shaxsning o'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lishida estetik his-tuyg'ular uyg'un shakllanib borishi uchun albatta ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'lqonli va samamarali foydalanish talab etiladi. Shuning uchun shaxsni estetik his-tuyg'ularini rivojlantirish o'zi uchun, davlat va jamiyat taraqqiyoti va ravnaqi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'limning muhim bosqichi boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bilimi, hayotiy ko'nikmalari poydevori yaratiladi. O'quvchining savodi chiqariladi, bilim ko'nikmalari rivojlantiriladi va tarbiya asoslari singdiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik his-tuyg'ularni shakllantirish tizimi borsida fikr yuritilganda estetik tarbiya mazmuni, uning xususiyatlari tarbiyaning umumiy maqsadi va uning qonuniyatlari hamda xususiyatlariga asoslanishini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir.

“Estetik tarbiya” tushunchasi bilan bir qatorda “badiiy tarbiya” tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan qvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi.

Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash ularning ijodiy qobiliyatlarini, estetik ehtiyojlarini, go'zallikni sevish, go'zallikka intilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatni shakllantirish vazifalari amalga oshiriladi. Estetik tarbiya jarayonida kichik maktab yoshi davrida o'quvchilarning estetik ongigina emas balki uning estetik his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga mos keladigan hulqiy malaka va odatlarni hosil qilish nazarda tutiladi. Buning uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi.

Estetik tarbiya muammolariga bag'ishlangan ilmiy – tadqiqotlar pedagog, psixolog olimlarimiz tomonidan ko'p va chuqur o'rganilgan bo'lsada, ularning tadqiqotlarini o'rganish, adabiyotlar va manbalar tahlili va tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiya ishlariga, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik his-tuyg'ularni shakllantirishga tizim sifatida yondashuv bu bugungi kundagi



yangilik va ishlanish, tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muammo sifatida qarash zaruratini ko'rsatadi. Biznincha, shaxs ijtimoiy tarbiyaning natijasi sifatida yaxlit ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko'pdan – ko'p hislatlari bir – biridan ajratilgan emas, o'zaro mustahkam bog'langan va bir birini to'ldiradi. Bu xususiyat estetik tarbiya jarayoniga ham taalluqli bo'lib, o'z navbatida bu xususiyat estetik his-tuyg'ularni shakllantirish tizimini taqozo etadi. Tizim – murakkab ko'rinishga ega bo'lgan, uzluksiz davom etadigan, biri ikkinchisini taqozo etadigan jarayondir. Demak, o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni shakllantirish tizimi mohiyatan tasodifiy yondashuv orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylangan rejalar orqali ruyobga chiqarish kerakligini ko'rsatadi.[4] Bu esa o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishda maqsad aniqligi va aniq maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatini ifodalaydi. Shuningdek yana bir xususiyat ko'rinadiki, bu estetik his-tuyg'u tarbiyasi uzluksiz va uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari birdaniga ko'rinmaydi va uzoq muddat talab etadi, hamda tarbiyalanuvchi uzluksiz tarbiyaviy ta'sir ostida bo'lishligini taqozo etadi. Sekin-astalik bilan estetik his-tuyg'u tarbiyasi rivojlanib borishi yuzaga keladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilanadi:

1. Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevizhga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilarning xatti-harakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevizhga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolalarni san'atning turli sohalarini: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.

Estetik didni shakllantirishda maktab o'quvchilari o'rtasida nafasat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Bolalarda estetikani tarbiyalash juda muhim va maroqlidir. Ularda yorqin va turli ranglarga



qiziqishning kuchliligi, bezatish va bo'yashga bo'lgan intilishlarini devorlar hatto buyum, mebellarga chizib ko'rishidan bilinadi. Ularni bu qiziqishlarini to'g'ri baholash va yo'naltirish iilamina yashirin iste'dodlarini namoyon etishga to'g'ri baholash va yo'naltirish ularning yashirin iste'dodlarini yuzga chiqarishga imkon beradi. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularni estetik didini tarbiyalashda turli metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida didaktik o'yinlar orqali bu maqsadga erishish mumkin, albatta innavatsion - mutlaqo yangi samarali usullardan foydalanish talab etiladi.

Kichik maktab yoshi davri yosh avlod ta'lim – tarbiyasidagi mas'uliyatli bosqich sifatida qaraladi. Psixologik adabiyotlarda yosh davrlariga bo'lishda boshlang'ich sinf o'quvchilar yoshi 7-10 yosh bo'lib, bu davr kichik maktab yoshi deb yuritiladi. Bola 7 yoshda jismoniy va ruhiy xususiyatlariga ko'ra ta'lim muassasasida ta'lim – tarbiya olish uchun tayyordir.[1] Bola uchun tizimli, uzluksiz davom etadigan majburiy vaqt asosida tashkil etiladigan ta'lim – tarbiyaviy faoliyatga jalb etiladi va bu faoliyatga o'tish o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining qiziqishi voqea-hodisalar mohiyatiga estetik to'g'ri yo'naltirilgan holda rivojlantirilib borishi ularning his-tuyg'ulari rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda estetik his – tuyg'ularni shakllantirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yana bir jihatlar borki, bu ular fikrlashlarining obrazlilik hisoblanadi. O'qituvchi nutqining ifodaliligi, ko'rgazmalilik, e'tiborlilik, ibrat namuna o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni shakllanishi va rivojlanishida asosiy omildir.

Kichik maktab yoshi davrida o'quvchilarni estetik tarbiyalash uzluksizligi ularning o'qish davridan bo'sh vaqtlarini ham pedagogik jihatdan oqilona tashkil etilishini bildiradi, ya'ni darsdan keyin, ta'til, dam olish kunlari ham hayotiy tajribalari to'liq shakllanib etilmagan o'quvchi bilan oilada, sinfdan, maktabdan tashqi ishlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ish olib borilishini talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar estetik his- tuyg'u tarbiyasining yana bir muhim xususiyati yaxlit va tizimli tashkil etilishi xususiyati bo'lib, shaxs sifatleri navbatma – navbat emas, balki yaxlit tarzda shakllantirib borilishi, tizimlilik xarakterida bo'lishini ifodalaydi. Estetik tarbiya jarayonida shaxs estetik rivojlanishni ta'minlash taqozo etiladi. Bu esa o'z navbatida estetik tarbiya jarayonini, xususan, estetik his-tuyg'u tarbiya jarayonini samarali bo'lishining umumpedagogik jihatlari, omillari batafsil yoritilishi, hamda



bu omillar estetik his-tuyg'ular rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi lozimligini bildiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik maktab yoshi o'quvchilarini borliqqa, voqelikka estetik munosabatlarini go'zallik, ezgulik, yuksak ma'naviyatlilik asosida shakllantirilishi estetik tarbiya, xususan, estetik his-tuyg'u tarbiyasi vazifalarini to'laqonli amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, bu vazifalarining pedagogik jihatdan to'g'ri qo'yilishi o'qituvchi va o'quvchi faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchining hissiy sohasini rivojlantirish, so'ngra aql va ijodkorlikni rivojlantirish, shundan keyingina etarli ijtimoiy, madaniy, shuningdek jismoniy ko'nikmalarni egallash yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. A.Ziyayev "Bolalarda estetik xisni shakllantirish" "Uzluksiz talim" T-2011 yil 1-soni.
2. A.Ziyayev "Tarbiya immuniteti va "ommaviy madaniyat""Xalk talimi" T-2012 yil 1-soni.
3. X.Sapoxonov "Etika va estetika asoslari" "Fan va texnologiya" T. 2009 yil.
4. Ziyayev, A. I. «National and cultural peculiarities of english, russian and uzbek phraseological intensifiers.» International scientific journal 40.34 (2016): 65-71.
5. Ziyaev, A.I., and Z.J.Aliyeva. «Integration internet technologies in the educational process of teaching foreign languages.» Вестник магистратуры 5-4 (128) (2022): 140-142.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada kichik maktab yoshi davrining o'ziga xos jihatlari va bu yosh darida o'quvchilar estetik his-tuyg'ularni rivojlantirishning mazmuni, uni amalga oshirishning ijtimoiy ahamiyati bayon qilingan. Shuningdek, kichik maktab yoshi o'quvchilari estetik his-tuyg'uni shakllantirishdagi pedagogik qarashlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыты особенности периода младшего школьного возраста и содержание развития эстетического чувства учащихся в этом возрасте, социальная значимость его реализации, а также педагогические взгляды на формирование эстетического чувства учащихся младшей школы.

SUMMARY

This article reveals the features of the period of primary school age and the content of the development of the aesthetic sense of students at this age, the social significance of its implementation, as well as pedagogical views on the formation of the aesthetic sense of primary school students.